

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING
IMIDJINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Begimkulova Zamira SHeraliyevna

Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti.

A'zamova Malohat Nadjimovna

Toshkent shahridagi

Puchon universiteti dotsenti, Phd.

Annotatsiya: *Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) jamiyat hayotida tobora muhim o'rin egallab bormoqda, ularning samarali faoliyati esa ko'p jihatdan rahbarlarning boshqaruv salohiyatiga bog'liq. Bu jarayonda MTT direktorining professional va shaxsiy imidji hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki rahbarning ijobiy imidji MTMning obro'sini oshiradi, pedagogik jamoaning motivasiyasini kuchaytiradi, ota-onalar va keng jamoatchilikning ishonchini qozonadi hamda ta'lim-tarbiya sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

Ushbu maqola MTT direktorlarining samarali imidjini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida imidj, imidjmayking tushunchalarining mohiyati, uning pedagogik va boshqaruv faoliyatidagi o'рни, shuningdek, uni shakllantiruvchi asosiy omillar xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida o'rganilgan. Maqolada rahbar imidjini shakllantiruvchi asosiy komponentlar: professional kompetentlik, kommunikativ mahorat, etika va qadriyatlarga rioya qilish, liderlik qobiliyatlari, tashkiliy madaniyat, tashqi ko'rinish madaniyati hamda ommaviy axborot vositalari bilan ishlash kabi asosiy mexanizmlar batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, rahbarning o'z-o'zini rivojlantirish va doimiy o'rganishning imidj shakllantirishdagi ahamiyati hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, MTT direktori, imidj, professional imidj, rahbarlik, boshqaruv, imidj shakllantirish mexanizmlari, liderlik, kommunikasiya.*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini boshqarishdagi direktorning imidj boshqaruv salohiyatini takomillashtirish O'zbekiston maktabgacha ta'lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini yanada sifatini oshirish, jamiyatdagi ishonchni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish va



maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorning yuqori imidj menejment salohiyati yordamida ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish, innovatsiyalarni qo'llash va pedagogik metodlarni takomillashtirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarining nufuzsini oshirish mumkin. Bu nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki milliy imidjni ham mustahkamlashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarining imidjini shakllantirish tashkilotning tashqi va ichki muhitida ijobiy taassurot qoldirish, ota-onalar va jamoatchilik bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish uchun muhimdir. Raqobatbardosh ta'lim muassasasi yaratishda rahbarning professional imidji muvaffaqiyat omili sifatida namoyon bo'ladi. SHuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimi talablariga javob beradigan rahbarlar faoliyatida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining professional imidjini shakllantirish masalasini chuqur o'rganish, uning ahamiyatini yoritish va ushbu jarayonni rivojlantirish bo'yicha samarali usullar ishlab chiqish maqsad qilib olingan. Ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati rahbarlik faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatda ta'lim muassasalarining ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qilishidan iborat. Maktabgacha ta'lim rahbarlarining professional imidjini shakllantirish masalasi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va tajribalar rahbarlik imidjining muvaffaqiyatli boshqaruvda hal qiluvchi o'rin tutishini tasdiqlaydi. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari professional imidj tushunchasi va uni shakllantirishga oid turli nazariy va amaliy yondashuvlarni taklif qilmoqda. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, professional imidj rahbarning o'zini namoyon qilish, boshqaruvda ochiqlik va ishonchli munosabatlar o'rnatish, ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatni his qilish kabi jihatlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Jumladan, G'arb davlatlarida maktabgacha ta'lim rahbarlarining imidjini shakllantirishda rahbarning kommunikatsiya qobiliyatlari va yetakchilik mahorati ustida ishlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada AQSH va Buyuk Britaniyada maxsus rahbarlik malakasini oshirish kurslari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular professional imidjning tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bo'riyev X.K. tadqiqotlarida “direktorning menejment kompetensiyalari, jumladan, strategik rejalashtirish, jamoani boshqarish, pedagogik faoliyatni nazorat qilish va maktabgacha ta'limning me'yorlariga rioya qilish orqali tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega



ekanligi ta’kidlanadi. U, shuningdek, direktorlarning pedagogik kengash va boshqa ma’muriy organlar bilan hamkorlikda ta’lim jarayonini monitoring qilish, ta’lim tizimining innovatsion yondashuvlarini amalga oshirish, bolalar huquqlarini himoya qilish va ta’limni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishda yetakchi rol o’ynashini alohida qayd etadi”. Milliy imidjni boshqarish, o’z navbatida, maktabgacha ta’lim tashkilotining muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlashda muhim omil bo’lib, direktorning imidj menejment salohiyati orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tizimining milliy imidji, uning sifatini va davlatdagi ta’lim tizimiga bo’lgan ishonchni oshiradi. Milliy imidjni boshqarishning ahamiyati, direktorning maktabgacha ta’lim tizimining ta’lim, tarbiya, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishda o’zining yuqori kompetentligi va professional yondashuvini qo’llashi bilan bog’liqdir. Direktorning imidj menejment salohiyati, ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etishda, milliy va xalqaro me’yorlar asosida bolalarga sifatli ta’lim berishga imkon yaratadi, natijada maktabgacha ta’lim tizimining imidji yanada mustahkamlanadi. SHu bilan birga, direktorning imidj menejment salohiyatini mustahkamlanishi va milliy imidjni boshqarishning samarali amalga oshirilishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o’zgaruvchan sharoitlarga moslashishiga, ta’lim sifatining yaxshilanishiga, pedagogik innovatsiyalarni joriy etishga va jamiyat oldida maktabgacha ta’lim tizimining ijobiy imidjini yaratishga yordam beradi. Kalmuratov T.N. “ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkiliy va moliyaviy ta’minlash, boshqaruvchi va boshqariluvchi pog’onalar hamda hamkor tashkilotlar o’rtasida ijobiy munosabatlarni o’rnatish, faoliyat yo’nalishlarini muvofiqlashtirish, xodimlarni tanlash va joyjoyiga qo’yish bevosita direktorning boshqaruv kompetensiyalariga bog’liqdir”¹ deydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining imidj menejment salohiyatini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlarini pedagogik va menejment sohasidagi olimlar nuqtayi nazaridan metodologik tahlil qilishda, bir nechta asosiy yondashuvlar ko’rib chiqamiz. Lev Vygotskiyning “pedagogik jarayonni tashkil etishda direktorning rolini belgilashda “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ta’kidlanadi, bu esa direktorning ta’lim jarayonini tashkil qilishda o’zgaruvchan ehtiyojlarni aniqlash va pedagoglarga yordam berishning ahamiyatini ko’rsatadi. Direktorning imidj menejment salohiyatini takomillashtirishda, direktorning bolalar va pedagoglar ehtiyojlariga mos ravishda ta’limni shakllantirishi va innovatsion metodlarni joriy etish zarur”. Paul Hersey va Ken Blanchardning vaziyatga qarab boshqaruv nazariyasiga ko’ra, har bir direktor o’zining menejment yondashuvlarini xodimlarning malakasi va ehtiyojlariga qarab moslashtirishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida



direktorlar pedagogik jamoaning individual ehtiyojlarini hisobga olishlari lozim. Bu, direktorning jamoani boshqarish va motivatsiya qilishda, shuningdek, xodimlarning kasbiy malakasini oshirishda samarali bo'lishiga yordam beradi. Bu metodologiya direktorning pedagogik faoliyatni nazorat qilish, xodimlarning rivojlanishini kuzatish va ularga kerakli yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining professional imidjini shakllantirishda bir nechta omillar hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Ushbu omillar nazariy va amaliy asosda o'rganilib, quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

1. Kompleks imidj modelini shakllantirish zaruriyati: Ilmiy tadqiqotlar natijasida professional imidjni shakllantirishda rahbarning kasbiy va shaxsiy fazilatlari, liderlik qobiliyatlari, nutq madaniyati va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining uyg'unligi zarurligi aniqlandi. Jumladan, G'arb davlatlarida rahbarlarning shaxsiy qobiliyatlari va professional ko'nikmalarini rivojlantirishga oid kompleks yondashuvlar samarali bo'lib chiqdi. Skandinaviya mamlakatlari tajribasida ekologik mas'uliyat va ijtimoiy faoliyatning rahbar imidjiga ta'siri katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

2. Kommunikatsiya qobiliyatlari va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar: So'rovnoma va kuzatuv natijalari rahbarning ochiq va konstruktiv mulohaza olib borishi, ayniqsa, ota-onalar va mahalla jamoatchiligi bilan ishlashda professional imidjni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. SHu bilan birga, raqamli texnologiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash samarador vosita bo'lib chiqdi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbarlar orasida ijtimoiy media orqali imidjni boshqarish ommabop yondashuvga aylanmoqda.

3. Emotsional intellekt va psixologik tayyorgarlik: Rahbarlarning emotsional barqarorligi va stressga chidamlilik darajasi rahbarlikning samaradorligini oshiruvchi muhim jihatlar sifatida aniqlandi. Tadqiqotlar emotsional intellekt yuqori bo'lgan rahbarlar o'z jamoasi va ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga muvaffaq bo'lishini tasdiqladi. SHu sababli rahbarlar uchun psixologik tayyorgarlik va stressni boshqarish bo'yicha maxsus treninglarni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlanmoqda.

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Ilmiy kuzatuvlar rahbarlarning raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot platformalaridan foydalanishi professional imidjni shakllantirishga yangi imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Masalan, xalqaro tajriba rahbarlarning onlayn treninglarda ishtirok etishi va ta'lim muassasasining muvaffaqiyatlari haqida muntazam ravishda



ma'lumotlar taqdim etishi orqali ularning ijobiy qiyofasini keng ommaga yetkazishda muhim rol o'ynashini tasdiqladi. SHuningdek, maktabgacha ta'lim rahbarlari uchun maxsus onlayn platformalar yaratish tavsiya etiladi.

5. Shaxsiy qiyofa va tashqi ko'rinishning ta'siri: O'tkazilgan kuzatuvlar rahbarning tashqi qiyofasi, o'ziga xos kiyinish uslubi va tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratish professional imidjning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Tashqi qiyofaning professionallik, tozalikka rioya qilish va jamoatchilik oldida o'zini tutish madaniyatiga mos bo'lishi ijobiy taassurot qoldiradi va muassasa obro'sini oshiradi.

6. Malaka oshirish va metodik qo'llanmalar zarurati: Tadqiqot natijalariga ko'ra, rahbarlik imidjini rivojlantirishda malaka oshirish va trening dasturlari muhim ahamiyatga ega. Mahalliy tajribalardan ko'rinib turibdiki, rahbarlar o'z malakalarini muntazam oshirib borish orqali yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqda. Rahbarlar uchun maxsus metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va muntazam ravishda seminarlar tashkil qilish bu borada katta samara beradi.

7. Jamiyat bilan muloqot va ishonchni shakllantirish: Ilmiy manbalarda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari uchun jamiyat bilan samarali muloqotni rivojlantirish alohida ta'kidlanadi. Jamoatchilik va ota-onalar bilan ochiq eshiklar kunlari, yig'ilishlar va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali rahbarning obro'si mustahkamlanadi. SHuningdek, mahalliy hamkorlik dasturlarida ishtirok etish ham ijobiy imidj shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, professional imidjni shakllantirish rahbarlik faoliyatining samaradorligi, ta'lim sifati va jamiyatdagi ishonchni oshirish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli rahbarlar uchun o'z imidjini boshqarish bo'yicha maxsus strategiyalar ishlab chiqish, malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarur.

Ushbu omillar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining obro'sini oshirish va sifatli ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining professional imidjini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, jamoatchilik ishonchini qozonish va samarali boshqaruv muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, professional imidj faqat tashqi qiyofa bilan cheklanmasdan, rahbarning kasbiy malakasi, liderlik qobiliyatlari, muloqot uslubi, emotsional barqarorlik darajasi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlari kabi ko'plab omillardan tashkil topadi. Rahbarlarning jamiyat va jamoa bilan o'rnatadigan ishonchli va ochiq muloqoti ularning ijobiy qiyofasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Samarali imidjni shakllantirishda emotsional intellektning yuqori darajasi katta ahamiyatga



ega. Stressni boshqara olish, boshqalarni tushunish va konstruktiv muhit yaratish orqali rahbarlar o'z obro'larini mustahkamlashga muvaffaq bo'lishadi. SHuningdek, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish zamonaviy rahbarlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Rahbarlar o'z faoliyatlarini keng jamoatchilikka muntazam ravishda tanishtirib, muassasaning obro'sini oshirish imkoniyatiga ega. Tashqi qiyofa va o'ziga xos kiyinish uslubi ham rahbarning jamoatchilik oldida qanday qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi. Tashqi ko'rinishning professional darajada bo'lishi ta'lim muassasasining umumiy obro'sini oshirishga xizmat qiladi. SHu bilan birga, rahbarlar uchun maxsus malaka oshirish kurslari, treninglar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi ularning professional imidjini samarali shakllantirish uchun zarur shart hisoblanadi. Umuman olganda, professional imidj maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ta'lim sifatiga va muassasaning ijtimoiy obro'siga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bo'lib, u kompleks yondashuv va zamonaviy boshqaruv yutuqlarini qo'llash orqali shakllantirilishi kerak. SHu sababli, ta'lim tizimida rahbarlik imidjini mustahkamlashga yo'naltirilgan tizimli choratadbirlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorning imidj menejment salohiyatini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlari olimlarning metodologik nazariyalari asosida tashkil etilishi lozim. Har bir nazariya direktorning pedagogik faoliyatni boshqarishdagi rolini, o'zgarishlarni amalga oshirishdagi yondashuvlarni va jamoani samarali boshqarishdagi ehtiyojlarni hisobga olishni ta'kidlaydi.

Milliy imidj yaratish jarayonida direktor zamonaviy ko'nikmalarni o'zlashtirib, ilg'or texnologiyalarni va metodologiyalarni to'g'ri qo'llashi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy, pedagogik, kommunikatsion va texnologik vositalarni uyg'unlashtirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotining brendini mustahkamlash mumkin. Bu jarayonlarning har biri o'zaro bog'liq bo'lib, tashkilotning ichki va tashqi samaradorligini oshirishga, shuningdek, uning milliy imidjini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo'riyev, X.K. (2024). Malaka oshirish tizimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish.
2. Qodirova, N. (2019). **Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar**. Toshkent: Fan va texnologiya.



3. Karimova, D.X. (2020). “Ta’lim muassasalari rahbarlarining imidjini shakllantirishda kommunikativ kompetensiyaning o’rni”. **Pedagogika va psixologiya jurnali**, №3, 45–52.

4. UNESCO. (2017). **early CHildhood Care and education: Learning through Play**. Paris: UNESCO Publishing.

5. Xolmatova, G. (2022). **Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy kompetensiyalari**. Toshkent: O’qituvchi.

6. Drucker, P. (2007). **Management CHallenges for the 21st Century**. New York: Harper Business.

7. SHirinova, M. (2021). “Rahbar shaxsiy fazilatlari va imidj shakllanishi”. **Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali**, №2, 88–95.

